



G'AFUR G'ULOM "SHUM BOLA" QISSASINI INTERFAOL USULLAR ASOSIDA O'RGANISH

Eshquvvatova Farangiz Oroljon qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7790925>

ARTICLE INFO

Received: 22th March 2023

Accepted: 30th March 2023

Online: 31th March 2023

KEY WORDS

"Shum bola", swot-universal tahlil, kuchli tomonlari, zaiftomonlari, imkoniyatlari, tashqi xavf-xatar, muammo texnologiyasi, muammoning yechish sabablari va sizning harakatlariz, galeriya texnologiyasi.

ABSTRACT

Maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasini 6-sinf o'quvchilariga qanday tartibda o'rgatish, qanday metod va usullar bilan o'rganilsa o'quvchilar uchun samarali bo'lishi to'g'risida tavsiyalar beriladi.

Jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi, ta'limning rivojlanishiga va mazmunan takomilashib borishiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 5-sentabr kuni "Xalq ta'limini boshqarish tizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni. 2017-yil 7-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Ijtimoiy sohaning rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" da ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga bag'ishlangan bo'limi hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarga yaqqol misoldir.

Ta'limning globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriyet ilayotgani ta'lim muassasalarida ta'limsifatining oshishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, ona tili va adabiyot darslarida interfaol usullar, pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tilsa o'quvchi o'sha fanga bo'lgan qiziqishi ortadi. Ma'lumki, har qanday texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi. Shu asosida biz 6-sinf adabiyot darsligida atoqli adib G'afur G'ulomning "Shum bola" asarini 2017 yil bilan 2022-yil nashrlari orasida ancha farq seziladi. Ya'ni yangi nashrda bir parcha tarzda keltirilgan. Shu sababdan bu asarni quyidagi interfaol usullar bilan o'rganilsa, o'quvchilar uchun ancha samaradorli bo'ladi. Bilamizki, "Shum bola" asari dunyodagi ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan. Mazko'r asarni o'rganish jarayonida o'quvchilar e'tibori Shum bolaning xulq-atvori, kechinmalari va odamlarga munosabatiga qaratiladi. Bunda "Swot-universal tahlil" texnologiyasi qo'l keladi. "Swot-universal tahlil" metodi ta'lim tizimida eng ko'p qo'llanadigan usullardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar



o'tkazishda yoki o'quv seminari yakunida, o'quv rejasi asosida biron bir bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin. Bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrlarini boshqalarga yetkazishda, ochiq holda bahslashishga o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Buning uchun kompyuter ekraniga bo'sh jadval joylashtiriladi yoki A-3, A-4 formatli qog'ozlarda chizilgan jadvallar o'quvchilarga tarqatiladi. Ular Shum bolaning kuchli, zaif tomonlarini, uning usha paytdagi imkoniyatlari, unga tashqi ta'sirlarni izlab topishlari va jadvalga tushirishlari lozim. Uni guruhlardan bir o'quvchi taqdim qilishi mumkin. Har bir o'quvchi o'zining tahlilini tayyorlashi, uni izohlab, yangi fikrlar bilan boyitishi asar qahramonini yanada yaxshi o'rganishiga zamin yaratadi.

1-slayd

"SWOT- universal tahlil"

KUCHLI TOMONLARI	ZAIF TOMONLARI
Jasur, jo'mard, tirishqoq, Ziyrak, hozirjavob, so'zamol	Yolg'onchi, betgachopar, O'zbilarmon
IMKONIYATLARI	TASHQI XAVF-XATAR
Sezgir, hiylakor, dadil, Kuzatuvchan	Yetimligi, boshpanasizligi

Ushbu texnologiya orqali o'quvchilar shum bola haqidagi nazariy va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, obrazning xulq-atvori, yutuqlari hamda kamchiliklari mustaqil tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish va uning yechimini topish ham dars sifatini oshiradi. Shuning uchun **"Muammo" texnologiyasini** ham shu o'rinda ko'rsatib o'tamiz. "Muammo" texnologiyasi bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi (tahlil, umumlashtirish) va o'quvchilarning izlanishli faoliyati, qonuniyatlarini hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llashi, qoidalarning yangi tizimidir. O'qituvchi muammoli vaziyat yaratadi, o'quvchini uni yechishga yo'naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish, o'qituvchi mahoratini talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

2-slayd

"Muammo" texnologiyasi

MUAMMONING TURI	MUAMMONING KELIB CHIQUISH SABABLARI	MUAMMONI YECHISH YO'LLARIVA SIZNING HARAKATLARINGIZ
Shum bolaning uyidan chiqib darbador yurishi	Zamonning Og'irligi	Shum bolaning Uyiga qaytishi va uni zamonamiz bolalari bilan qiyoslash

"Muammo" texnologiyasi o'quvchilarga asarda yuzaga kelgan muammolarni o'rganishga, uning yechimini topishga, mulohaza yuritishga yordam beradi. Darslikda



eslatibo'tilganidek, "Shum bola" asarini o'qib chiqish o'quvchilarga qo'shimcha topshiriq tarzida berilgani ma'qul. Mustahkamlash darsida "**Galereya**" texnologiyasidan foydalanish mumkin. Ushbu texnologiya "Shum bola" asarini to'liq qamrab olgan holda, kichik guruhlarda tashkil qilinadi. Har bir guruhga Shum bolaning yangi bir sarguzashtini tasvirlash vazifasi topshiriladi. Guruh a'zolari topshiriqni qog'ozda bajaradilar va uni sinfning istalgan joyiga (doska, devoryokieshikka) yopishtiradilar. Har bir guruh o'z ishining taqdimotini tayyorlaydi. Navbati bilan taqdimot o'tkaziladi. O'qituvchi va barcha o'quvchilar birgalikda ko'rgazma oldiga boradilar taqdimotni tinglab shu asosda savollar beriladi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni erkin mushohada yuritishiga yo'l ochadi, ayni chog'da mavzuni to'liq o'zlashtirish

Imkonini beradi.

3-slayd

"Galereya" texnologiyasi



"Sog'inish" va "Vaqt" she'rlarini "Sinkveyn", "Zinama-zina", "Olmos" "Klaster" hamda mashiqlar orqali o'quvchilarga yetkazish mumkin. 8-sinf dasturiga G'afur G'ulomning "Vaqt" she'ri kiritilib, bu she'ri o'rganishga bir soat vaqt ajratilgan. O'qituvchi bu darsni o'tishda puxta tayyorgarlik ko'rishi xattaxtaga yozib qo'yish lozim. Masalan: VAQT-o'tmishni kelajak bilan tutashtiruvchi-hozirdir. (AL-Kindiy): Dunyoda ko'zga ko'rinmas, sirli, g'oyat bebaho narsa borki, u ham bo'lsa -VAQTdir. Olamdagi eng uzoq davom etuvchi va ayni paytda eng qisqa narsa -VAQT. Kishilar VAQTning o'tishiga befarq qarasa-da, yo'qotgach behad achinishadi (Volter): Olloh olamni yaratish bilan birga vaqtni ham yaratgan, uning yaratilishi harakatni yuzaga keltirgan. Ana shu harakat onlari va olamdagi o'zgarish -VAQT deb ataladi (E.Kant) kabilar shular jumlasidandir.



Dars she'ri ifodali o'qish, yod olishdan boshlanib, o'qitishning zamonaviy usullardan biri "Klaster" hamda bahs -munozara shaklida olib boriladi. O'qituvchi o'quvchilarga: "*Tarixga nazar tashlansa, daqiqalar qimmatlimi yoxud asarlar? Buyuk shaxslar hayotida ularning qay biri muhimroq mavqega ega? Inson taqdiri lahzalarda hal bo'lishi mumkinmi? Buyuk kashfiyotlar qanday yuzaga keladi? Umuman, biz vaqt deganda nimani tushunamiz? Hozir, keyin tushunchalariga munosabatingiz*" kabi savollar bilan murojat qiladi va javoblarga qarab, o'quvchilarni ramziy ma'nodagi "**Lahza**" va "**Asr**" guruhlariga bo'ladi. So'ngra, she'r ifodali o'qib bo'lingach, uning har bir satri haqida mulohaza yuritiladi.

Birinchi banddagi:

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni

Kapalak umriga qiyos etgulik.

Ba'zida bir nafas olg'ulik muddat

Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik

kabi misralar haqida o'qituvchi tomonidan o'rta quyidagicha savvollar tashlanadi. G'uncha nima? Uning ochilish fursati qanday kechadi? Nega bu jarayon kapalak umriga qiyos etilmoqda? Bir nafas nima, o'zi? Vaqtmu, tiriklikmi? Yulduz so'nishi-chi?

Ushbu muammoli savollarga har bir guruh a'zosi o'zining mustaqil fikrini yoxud jamoa xulosasi asosida javob berishi mumkin. Dastavval, "**Lahza**" **guruhidagilar** taxminan shunday javoblarni berishlari maqsadga muvofiq. Gulg'uncha-atirgulning ochilishidan oldingi holati. Uning g'unchalikdan gul holatiga o'tishi jarayonini esa kuzatib bo'lmaydi, demak, qisqa fursatda bir holdan ikkinchi holga o'tadi, uni har qancha urinmang, oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin emas. Shoir she'rda g'unchaning gul holatiga o'tishidagi oniy so'zlayotir. Yana tabiatda bizning o'lchovimiz bilan atigi 3-4 soatgina umr ko'radigan pashshava kapalaklar ham bor. Ammo bu vaqt ular uchun butun bir umrni belgilaydi. Jumladan, she'rda kapalak umrining qisqaligi, ammo shu davr ichida u tug'ilib, voyaga yetib, nasl qoldirishga ulgurishi tilga olingan.

"**Asr**" **guruhining javobi**: She'rdagi ma'no uning abadiyligi bilan aloqador. Chunki gulg'uncha (nim ochilgan atirgul) ta'rif va tavsifga loyiq. Afsuski, u ochilgan, uzoq yashamaydi, barglari to'kilib ketadi. Ammo uning maftunkorligi, xushbo'y hidi va tarovati, go'zalligi ana shu vaqtdagi beqiyosligida. Xuddi shu davridagi viqori uning alohida xususiyatini belgilaydi. Zotan, uning kapalak umriga qiyoslanishida ham shunday ma'no mavjud. Kapalak eng kam umr ko'radigan hashorat bo'lishiga qaramasdan, rang-barang tovlanishi-yu, nafisligi, ajib manzara kasb etishi bilan dillarga zavq bag'ishlaydi, u bu davrda o'z jozibasi orqali ko'pchilikning ko'nglini xushnud etishga erishadi. Xullas, o'quvchilar ushbu she'r orqali vaqt kabi muammoli tushuncha haqida erkin mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko'nikmalarini hosil qilish hamda ularning tafakkurini shakllantirishga erishish mumkin. Ayniqsa, adib ijodiy uzasidan o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashda "Skarabey", "Akvarium", "Labirint" va "Piramida" texnologiyalarini qo'llash dars samadorligini oshiradi.

"Mening o'g'rigina bolam" hikoyasida o'zi guvoh bo'lgan oddiy voqea asosida shafqatsiz jamiyatni va shunday sharoitd ham o'zining insonligiga, mehr-oqibatiga zarracha putur yetkazmagan insonni ko'rsatadi. Yozuvchi o'z ota-onasi o'lib, uchta singlisi bilan katta onasi - "qora buvisi" qo'lida qolgan paytidagi uylariga o'g'ri kelishi voqeasini so'zlaydi. Birinchi jahon urushi payti, "zamon chappasiga ketgan" vaqt, barcha kosiblar singan, ish yo'q hamma och-yalang'och. Oddiy kosib, ishsizyigit ikki bolasi, xotini, onasini boqa olmay, o'g'irlik qilishga



majbur bo'ladi. Kechasi "Qora buvi" ning tomiga chiqqanida qo'qqisdan aksirib yuboradi. Yetimlar taqdirini o'ylab, mijja qoqmay yotgan "qora buvi", *"O'g'rigina bolam, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo'lmaydimi!"*, - deydi. "Qora buvi" ning mehribonona, samimiy munosabati o'g'rining ham xasrat qopini ochib yuboradi. U tomda, kampir pastda dardlashadilar, urushning kasofati, xalqning qashshoq hayoti, shaharning yetimga to'lib ketgani, xullas, osmon uzoq yer qattiqligi to'g'risida suhbat quradilar. O'g'rining so'zidan ellikboshilarning poraxo'rliigi ham, boylar-u amaldorlarning, tuzumning shafqatsizligi ham oshkor bo'ladi. Yozuvchi ayni paytda, shu kambag'allarda insoniylik, odamiylik, mehr-shafqat tuyg'usi saqlanib qolganini ta'kidlaydi: "qora buvi" o'g'rini uyida bor bo'lgan ikkitagina zog'ara non bilan choy ichishga taklif qiladi, u esa *"Meni tanib qolasiz, juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo'qandisham bor, uyalaman"*, - deydi. "Qora buvi" uyda yarim pudlik qozon bor, hozir bunda ovqat pishirishga masalliq ham yetmaydi, *"qutlug' uydan quruq ketasanmi, bolam... Shuni obketaqol. Sotib kuningga yaratarsan, o'g'rigina bolam"*, - deydi. O'g'ri ko'nmaydi, kelajakda yaxshi kunlar kelishiga umid bildiradi. Ko'rinadiki, hikoyada ona -farzandik munosabatiga xos samimiy, chin insoniy muhit yaratilgan. Shuning uchun ham, u kitobxonni rom qiladi, ishontiradi.

G'afur G'ulom ijodini o'rganish jarayonida adib asarlarining til xususiyatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Shu o'rinda "Shumbola" asarida ishlatilgan quydagi maqol va iboralarga to'xtalsak: *"Og'zi qaro-alomat, ichi qizil -qiyomat"*, *"Sheriklik oshni it yemas"*, *"Ashulaga osh -non beradi"*, *"Qora po'stakdan burga qidirish qiyin"*, *"Ikki quyinni quvlagan birisini ham tutolmas"*. Mazkur maqol va iboralar o'z o'rnida mohirlik bilan qo'llanganiki, ulardan birortasini olib tashlab, boshqasiga almashtirib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, G'afur G'ulom asarlarini o'rganishda yuqoridagidek ilg'or pedagogic va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu o'quvchilarning darsni yaxshi o'zlashtirishlariga, adabiyotga bo'lgan qiziqishlarining o'sishiga zamin yaratadi.

References:

1. Raxmanov G'ofirjon "Ona tili darslarida A.K.T.lardan foydalanish shakillari"
2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Ta'limda innovatsion texnologiyalar Toshkent 2008y.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S., Pedagogik texnologiya asoslari: -T.: "O'qituvchi", 2004y.
4. Mamajonov S. G'afur G'ulom prozasi. -T: Fan, 1966
5. G'afur G'ulom .Mukammal asarlar to'plami. 5 t. -T: Fan 1986